

O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARDA HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIK HOLATLARINI OLDINI OLIHNING DOLZARB PSIXOLOGIK MASALALARI

Usmankulova Feruza Eshbekovna

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 27-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Qiziqishlarning shaxs xulq-atvorida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada qiziqishlarning bolalar va o‘smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta’siri ochib berishga harakat qilingan. Uni oldini olish omillari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qiziqish, o‘smir, jinoyatchilik, o‘z-o‘zini anglash, ehtiros, xarakter, rivojlanish, korreksiya.

KIRISH

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisoblanib, unda insonning individual xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish - insonlarning dunyoqarashi, e’tiqodlari, ideallari, ya’ni uning oliy maqsadlari, ezgu niyatlari, orzu-umidlari bilan bevosita muhim rol o‘ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Qiziqishlarning bolalar va o‘smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta’siri mavjud ekanligini o‘smirlik sublimatsiyasining noto‘g‘ri yo‘naltirilganligi bilan izohlaymiz. Qiziqish insonni harakatga undaydi. Qiziqishlari turli-tuman o‘smir o‘z tengdoshlari bilan jamiyatda o‘rnatilgan axloqiy-huquqiy talablarga qarama-qarshi bo‘lib, salbiy holatlarga beriluvchanlikni keltirib chiqaradi.

Dastlab qiziqish xarakteridagi salbiy xatti-harakatlar keyinchalik uning shaxsiyatiga ta’sir o‘tkazishi mumkin. Qiziqishlar to‘g‘ri tarbiyalansa, ular o‘smirlarning qobiliyatlari va mayllarining rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘quvchining bilimlari chuqurlashib boradi, u fanlarni o‘rgana boshlaydi, unda ayrim o‘quv predmetlariga, san’atga, sportning qaysidir turiga zo‘r qiziqish ortadi. O‘smir juda ko‘p narsalarga; sport, turizm, kino-teatr, badiiy havaskorlik kabi turli yo‘nalishlarga qiziqadi.

Ko‘p hollarda bu qiziqishlar ehtiros xarakteriga ega bo‘ladi. Kun tartibi to‘g‘ri tashkil qilinsa, vaqt to‘g‘ri taqqoslansa, o‘smir yaxshi o‘qish, maktabdan tashqari xilma-xilishlar bilan shug‘ullanishi va o‘yin-kulgu uchun yetarli vaqt topa olishi mumkin. Ilk yigitlik bo‘lag‘asida turgan o‘smirlar uchun kishilarning histuyg‘ulari, kechinmalariga va ayniqsa, o‘zining ichki dunyosiga, o‘zini o‘zi analiz qilishga moyillik xarakterlidir. O‘z-o‘zini anglashning - bu o‘zini o‘zi tanish, sifat va kamchiliklarini, o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini bilib olish, o‘z xatti-harakatlari haqida

hisob berish ehtiyojidir. O‘z-o‘zini anglashningeng yuqori darajasi o‘zining hayotdagi o‘rnini aniq tasavvur qilish, o‘zini shaxs sifatida anglab olishdir.

Dastlabki paytlarda uning o‘zi haqidagi fikrlari ko‘p jihatdan boshqa kishilarning u haqidagi fikrlaridan iborat bo‘ladi. “O‘z xarakter hislatlaring haqida sen qayerdan bilasan” - degan savolga o‘smirlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri otaonalari, o‘qituvchilari, o‘rtoqlaridan bilib olganlarini aytadilar, ammo keyinchalik buni o‘zlari seza boshlaydilar. Lekin har qalay, o‘zlaridan ko‘ra boshqa kishilarni oldinroq baholay boshlaydilar. Ular o‘z fikrlarini g‘olib chiqishini xohlashadilar.

O‘smirlar boshqa kishilarni baholashda bazan shoshma-shosharlik qilib, qat’iy fikr yuritishga yo‘l qo‘yib qo‘yadilar. Masalan: ular ko‘pincha kishilarni faqat ayrim xatti-harakatlari va ayrim sifatlariga qarab baholaydilar. Bu bahoni esa butun bir shaxsga nisbatan tadbiq qiladilar. Natijada kishining qadr-qimmatini uning ijobiy va salbiy sifatleri haqida ko‘pincha noto‘g‘ri xulosa chiqaradilar. Ularning o‘z-o‘ziga baho berishi ham har doim xolis bo‘lavermaydi. Masalan: ular o‘rtoqlarining qo‘polli g‘apiradilar-u, ammo buni o‘zlarida sezmaydilar. Hamma o‘smirlarham o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘z xatolarini vijdonan va ro‘yi-rost bo‘yniga olishni uddasidan chiqavermaydi.

O‘smir atrofdagilarning unga bergan bahosiga nisbatan sezgir bo‘ladi. Uning kayfiyatidagi ranjishsababi ana shunda. Tasodifiy muvaffaqiyat yoki kattalarning maqtab qo‘yishi, o‘smirlarni o‘ziga ortiqcha baho berishiga, o‘ziga haddan tashqari ishonuvchanlikka, maqtanchoqlikka olib keladi. Hatto vaqtincha, tasodifiy muvaffaqiyatsizlik o‘smirda o‘z kuchiga ishonmaslik ishonchsizlik uyg‘otish, qo‘rqoqlik, jur‘atsizlik va uyatchanlik hissini oshirib yuborish mumkin. Shu xususiyatlar natijasida unda kelib chiqadigan qiziqishlar salbiy xulqiy og‘ishishlarga, turli jinoiy xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ota-ona yoki o‘qituvchi o‘smirlar bilan bo‘ladigan munosabatda alohida e‘tiborli va nazokatli bo‘lishi zarur. O‘smirlik yoshida zaif, mustaqil emas, kichkina deb nom chiqarishning qo‘rqish xavfi kuchayadi. U o‘zining mustaqilligini ko‘rsatish uchun, o‘zining nohaqligini tushunib tursa ham, ko‘pincha qaysarlik va qo‘pollik qilaveradi. Muomalada dag‘allik, talabchanlik va hurmatsizlik o‘quvchiga yosh bolalarga bo‘lganday muomalada bo‘lish ular yaxshi tushunaman deb hisoblagan misollar bo‘yicha o‘zlarining mustaqil fikrlarini aytish huquqini mensimaslik ularning yuqori natijalarga erishishdagi kuch va imkoniyatlariga shubhalanish kabi hodisalar, odatda o‘smirda norozilik yoki aniq ifodalangan boshqa bir salbiy harakatlarni hosil qiladi.

XULOSA

O‘smirlar o‘z-o‘zini tarbiyalashga zarurat sezadilar buni ulardan onglilikning o‘sishi, kattalarga o‘xshashga intilishlari bilan tushuntirish mumkin. Ular ma‘lum darajada o‘zini ishontirish, o‘ziga buyruq berish, o‘zini nazorat qilish kabi o‘z-o‘zini

tarbiyalash vositalariga egadirlar. Ular ayniqsa, jismoniy va iroda sifatlarini oʻstirishga harakat qiladilar. Oʻsmirlikda bolalarda burch va javobgarlik tuygʻulari yetarli darajada oʻsgan boʻladi. Bolalar oʻzlari ongʻli ravishda tanlagan maʼlum maqsadga erishish uchun ish-harakatlar qilishga qobil boʻlib qoladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umarov B.M. Bolalar va oʻsmirlarda xulq ogʻishining kelib chiqishi va uning oldini olishning ayrim psixologik masalalari. //uslubiy qoʻllanma. – T. – 2008, 85bet.
2. Калмыкова Э. С., Падун М. А. Ранняя привязанность и ее влияние на устойчивость к психической травме: Постановка проблемы (Сообщ. 1) // Психологический журнал. – Т. 23. – М.: 2002. – № 5. – С.
3. Qarshiboyeva G. Oilada bolalarni xalq ogʻzaki ijodi naʼmunalari asosida tarbiyalash //Архив Научных Публикаций JSPI. –2020.
4. Шарафитдинов А. и др. Проблема застенчивости у ребенка и ее устранение //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 64-66.
5. Шарафитдинов А. и др. Формирование у учеников чувства общности //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 66-67
6. Маджидов Дж Б, Маджидова В, Шарофиддинов А. Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. страницы: 22-24 источник: актуальные вопросы современной психологии материалы международной научной конференции. 2017
7. Sharaffitdinov, A., & Yusupov, U. (2022). The opportunities of educating morality for children through samples of folklore. EurasianScientificHerald, 5, 65-68.
8. Sharafitdinov Abdulla, QurbonboyevMirazizZulxaydaroʻgʻli Psychological Characteristics of DecisionMaking in Management Global Scientific Review A
9. Peer Reviewed, Open Access, International Journal www.scienticreview.com Volume 1, February 2022 ISSN (E): Pending